



ZAMONAVIY METODLARDAN TABIIY GEOGRAFIYA DARSLARIDA FOYDALANISH

Mavlonqulova Shahlo Sherzod qizi,

Mamajonova Xurshida Komiljon qizi

Guliston davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti 2-bosqich talabasi,

Guliston davlat pedagogika instituti, Pedagogika fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotasiya: Har bir bo‘lajak o‘qtuvchi o‘quv va tarbiyaviy faoliyatini muvoffaqiyatli olib borishi uchun ta‘lim-tarbiya jarayonini mazmun mohiyatini bilishi, ta‘lim tarbiya jarayonida dars va dars turlarini, darsni unumli va foydali to‘g‘ri tashkil qilish darsga doir bo‘lgan metodlarni ishlab chiqish va bu metodlarni qo‘llay olishni bilishlari shart va bu hozirda zamonaviy ta‘limning asosi hisoblanadi. Ushbu maqolada Tabiiy geografiya metodlaridan foydalanish imkoniyatlariga doir malumotlar aytib o‘tilgan.

Abstract: In order for every future teacher to successfully carry out educational and educational activities, it is necessary to know the essence of the educational process, to organize lessons and lesson types in the educational process, and to organize the lesson effectively and usefully. It is necessary to develop relevant methods and know how to use these methods, and this is now the basis of modern education. This article provides information on the possibilities of using natural geography methods.

Kalit so‘zlar: Texnologiya, pedagogik texnologiya, pedagogik texnologiya tasnifi, pedagogik texnologiya darajalari, pedagogik texnologiya mezonlari, nazaryalar, kommunikatsion, metodlar, jahon andozalari, milliy rivojlanish.

Key words: Technology, pedagogical technology, classification of pedagogical technology, levels of pedagogical technology, criteria of pedagogical technology, theories, communication, methods, world models, national development.

Mavzusining dolzarbligi

Hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilish, yangi avlod darsliklarini yaratish va uzluksiz ta‘lim tizimini modernizatsiyalash, bugungi kundagi mamlakatimizda o‘tib kelayotgan yosh avlod shaxsini har tomonlama barkamol avlod darajasida taminlash ma‘naviyan yetuk, o‘zligini anglashi, jismonan ruxan



sogʻlom avlod boʻlib oʻsishi, va shu bilan birgalikda vatanparvarlik va fidoiylilik kabi yuksak hislatlarni rivojlantiradi.

Oʻqtuvchi barkamol avlod taʼlim tarbiya jarayoni uchun javobgar shaxs boʻlib u nafaqat maʼnaviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga oʻrnak boʻlishi shu bilan birgalikda pedagogik mahoratni nomoyonda eta olishi yetuk oʻqtuvchi sifatida kelajak avlod uchun maʼlakali kadrlarni tayyorlay olishi oʻz ishiga munosib hissa qoʻshishi zarur.

Binobarin pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan bolaga nisbatan chuqur hurmatga ega boʻlmagan oʻqtuvchi taʼlim tarbiya samaradorligi va inson kamolotini taminlovchi fikriga ham ega boʻlolmaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega boʻlgan oʻqtuvchi bolani tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bolishi, har qanday pedagogik vaziyatni toʻgʻri baholay olishi, yuzaga kelgan ehtimolli ziddiyatlarni oʻz vaqtida bartaraf eta olishi, pedagogik vaziyatda doim ilgʻor jamiyat taraqqiyotida hamda pedagogik jarayonda oʻquvchilar ongiga singdirilayotgan gʻoyalarni hayot bilan bogʻlay olishi lozim. Unga misol tariqasida Tabiiy fanlar yokida Geografiya kabi bir qancha fanlarni ham nazariy ham amaliy tarizda bir biriga bogʻlay olishimiz zarur yani nazariy tarizda oʻrgangan narsalarimizni ochiq osmon ostida tabiat qoʻynida va shuningdek turli ekskursiya va laboratoriya sharoitlarida taxlil qila olishimiz tushuniladi.

Hozirgi kundagi darsliklar kommunikatsion axborot texnologiyalari qanchalik rivojlangan boʻlmasin pedagogik amalyot va taʼlim tarbiyaning muvaffaqiyati oʻqtuvchining bilimiga va kasbiy faolyatiga bogʻliqdir. Shu nuqtiy nazardan Oʻzbekiston Respublikasining birinchi prizidenti Islom Abdugʻaniyevich Karimov “Tarbiyachilarning oʻziga zamonaviy bilim berishi ularni maʼlumotini malakasini oshirish kabi paysalga solib bolmaydigan dolzarb masalalarga duch kelmoqdamiz. Menimcha taʼlim tarbiya tizimini oshirishdagi asosiy muommo shu yerda. Oʻqtuvchi oʻquvchilarimizga zamonaviy bilib bersin deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun avvalo murabbiylarimizning oʻzlari zamonaviy bilimga ega boʻlishlari kerak “deb takidlab oʻtadi

Darxaqiqat shuni aytib oʻtishimiz lozimki mustaqillikdan soʻng yokida mustaqillik yillarida har yili yalpi ichki mahsulotning 10-12 % taʼlimga yokida Oʻzbekiston



Respublikasining davlat budjetining 60% ijtimoiy sohaga yo'naltirilganligi belgilandi, ushbu mablag'ning 35 % puxta talim tarbiya olish uchun yo'naltirilgan hisoblanadi.

Shu tariqa pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qtuvchi yani pedagog o'z o'quv predmetini davir talabi asosida bilishi, pedagogik pisixalogik bilimlarga ega bo'lishi, hamda insoniylik, fidoiylilik, izlanuvchanlikni o'zida tadbqiq topdirish lozim, o'z kasbiga qiziqishi, pedagogik fikirlashi, mulohazalariga ishonchi va qat'iy irodasi chuniladi.

Pedagogik mahoratni tashkil etuvchi komponentlar

O'qtuvchilik kasbiga sadoqat;

O'z fanining o'qitish metodikasini mukammal bilishi;

Pedagogik qobiliyatlarini nomoyon eta olishi;

Pedagogik texnikani o'z o'rnida qo'llay olishi;

Hozirgi zamon fan va texnikasi jadal sur'atda rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyalarining salmog'i keskin oshayotgan bir davirda o'qtuvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish muhim ahamiyat kasib etadi. Shuning uchun o'qtuvchi faqat o'z fanini bo'yicha emas, balki o'z faniga yaqin bo'lgan sohalaridagi yangiliklarni bilishi talab etiladi.

Hozirgi kundagi muhim vazifalardan biri bolalarni fanga qiziqtirish, ularni e'tiborini darsga jalb qila olish, dunyo qarashini kengaytirish, fikirlash darajasini yaxshilash uchun turli xil metotlar mavjud yoki ulardan foydalanishimiz, yoki qo'llashimiz mumkun. Yana shuni aytish kerakki metodlardan to'g'ri va samarali foydalanish bolalarda fanga bolgan mehr, muhabbat va qiziqishni shakillantira oladi. Hozirda ta'lim jarayonida o'nlab balki yuzlab metodlarning turlari mavjud ularga misol qilib aytishimiz mumkun. Ko'rgazmali metotlar, amaliy metodlar, so'z orqali ifodalaniladigan metodlar mavjud, namunali bayon qilish metodi, reproduktiv metodi, tushuntirish ish rasimlar metodi, tadqiqot metodi, qisman



izlanish metodi, B.B.B metodi, baliq skelet metodi, qor bo‘ron metodi, dumoloq stol metodi, kabi metodlarning bir qancha turlari mavjud.

Bolalarni dunyo qarashlarini rivijlantirish, fikirlash darajasii kengaytirish va tafakkur qila olishini shakillantirish uchun o‘z navbatida amaliy va tajribiy metodlarni ahamiyati alohida o‘ringa egadir. Hozirgi kunda maktablarimizda tashkil qilingan Tabiiy fanlarni o‘qitishda biz ko‘plab tabiiy amaliy va tajribiy metodlardan foydalanamiz. Tabiiy fanlarda o‘qitishda turli xil metodlardan foydalanish o‘quvchilarda hozirgi zamon talablari, ta’lim sohasidagi jahon andozalari va milliy rivojlanish andozalariga mos keladigan geografik madaniyatni yani geografik dunyo qarashni, tafakkur va bilimlarni, ularni hayotda va kasbiy faolyatda qo‘llay olishni ko‘nikma va malakalarni (konpanentlikni) shakillantirishdan iboratdir.

O‘quvchilarda Yer sayyorasi va uning hududiy qisimlari haqida yaxlit bilimlarni shakillantirish, tabiiy, ijtimoiy iqtisodiy hamda ekologik hodisa va jarayonlarni tushunishi uchun ilmiy-metalogik zamin yaratish, tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish borasida hayotiy ko‘nikmalarni shakillantirish, ularni taxliliy fikirlashga o‘rgatish, olgan nazariy bilimlari asosida amaliy ko‘nikmalarni shakillantirishga qaratilgan amaliy metodlarning bir guruxi ishlab chiqilgan.

Tabiiy geografiyani o‘qitishda quyudagi gurux metodlarini kirgazishimiz lozim:

- Tatqiqot metotlari;
- Kuzatish metodlari;
- Amaliy metodlar;
- Tajribiy metodlar;

Amaliy yoki tajriba metodlardan foydalanish va u metodni to‘g‘ri yo‘naltira olish bolada tabiatga mehr muhabbat, uni asrash avaylash nafaqat tabiiy boyliklari bilan bir qatorda tabiatni asrash kabi ko‘nikmalarni shakillantiradi.

Amali metodlar bu-darsda olgan nazariy bilimlarini amalyotda o‘qtuvchi bilan birgalikda qo‘llab ko‘rishdur. Bu jarayon bolada



-Yerning o‘z o‘qi va Quyosh atrofidagi harakat mohiyatini, ularning tabiatga ahamyatini, quyosh sharqdan chiqib g‘arbga botishi qaysi tomon sharq qaysi tomon g‘arb ekanligi kabi amaliy metodlar qo‘llash bolada ko‘nikma va tushuncha hosil qiladi.

-Tabiy hodisalar va jarayonlarni, tun va kun, yil fasilari almashinishini kuzatish

-Globus va geografik kartalar xaritalar bilan ishlash daraja tori, meredianlar va parallellarning mohiyatini tushunish, geografik joylar geografik obektlarning joylashgan o‘rnini toppish, izlash, ko‘rish aniqlash bolada hududlarning geografik o‘rinlarini chuqur eslab qolishga imkon beradi.

-O‘qtuvchi bilan birgalikda dala maydonida ufq tomonlarini aniqlash, kun va tunga qarab oryentir aniqlash bolada fanga qiziqishni shakillantiradi.

-kuzatuvchi o‘qtuvchi bilan birgalikda kichik suv havzalarida o‘lchash ishlarini olib boorish yoki kichik suv havzalari founasini o‘rganish.

-Termometir yoki boshqa havo bosim asboblari yordamida iqlimning quruq yoki issiqligi, harorat darajasini o‘rganish iqlimning insonga qandey tasiri borligini tushuntirish.

-Foydali qazilma turlari ularning shakillari bilan ham qisqacha tanishish

Tabiy va ijtimoiy -iqtisodiy jarayonlarni kuzatish va tahlik qilish kichik davlat hudud viloyat shahar gaeografiyasini o‘rganish tabiati aholisi va xo‘jaligi haqida tizimli bilimlarni hosil qilish kichik kichik gurux ekskursiyalarni tashkil qilish va uni fan bilan bog‘lash, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning mohiyati va xususiyatlari, sabab oqibatlarini tushuntirish va yechim yo‘llari haqida to‘g‘ri tushuncha hosil qilish, yosh avlodning ekalogik madanyatini, milliy boyliklariga nisbatan ehtiyotkorona ruxda o‘stirish o‘quvchilarda Vatanga muhabbat, milliy iftihor, fuqorolik masulyatlari ruhida tarbiyalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son farmoni.
<http://lex.uz/docs/5841063>
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O‘zbekiston” 2017 y.
3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi



Prezidentining nutqi. Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar.

4. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar Strategiyasi. O‘zbekiston qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 iyundagi PQ-3052-sonli “Sog‘liqni saqlash organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori.

6. Ahmadaliyev A., Qosimov A. Innovatsion faoliyat va ilg‘or pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2011.-60 b.

7. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar – Toshkent, 2008.-34b

8. A.Musurmanova ,Umumiy pedagogika

9. Tolipo‘v.O‘,Usmonboyeva .M, “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari”

